

МАКТАБГАЧА ВА KИЧИК МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

**Po'latova Dilrabo Asqarovna,
Yuldasheva E'tibor Kasimbayevna**

*Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)
bakalavr ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabalari*

Abstrakt: *Ushbu maqolada bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish borasida samaraga erishib kelayotgan metod va usullar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *metod, innovatsion texnologiyalar, harakatli o'yinlar, organayzerlar, ijtimoiy tarmoqlar, malakali pedagoglar, metodlarning afzalligi.*

Jahon hamjamiyatida har tomonlama o'z o'rnini topib borayotgan mamlakatimizda boshqa sohalar qatori fan va ta'lim sohasida ham sezilarli odimlar kuzatilmoqda. Xususan xorijiy tillarni o'qitish borasida yangi tushunchalar, metodlar maydonga chiqib keldi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinflarda chet tillarining o'rgatilishi bugungi globallashtirish davrining o'ziga xos talablaridan biri, desak yanglishmaymiz.

PQ 1875-sonli qarorga muvofiq O'zbekiston respublikasi maktablarida ingliz tili 1-sinfdan o'qitila boshlandi. Kichik yoshdagi bolalarda xususan bog'cha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda yangi tilni o'zlashtirish imkoniyati boshqalarga nisbatan bir necha barobar ortiqroqdir. Bunday bolalarning eslab qolish qobiliyati yuqori darajada ekanligi psixologiya tarixi tadqiqotlarida bir necha marotaba o'z isbotini topgan.

Ammo shuni alohida hisobga olish kerakki, bugunning bog'cha bolasi 10 yil oldingi tengdoshidan ancha farq qiladi. Turmush tarzimizni ijtimoiy tarmoqlar hamda telefon, noutbuk kabi gadgetlar egallab olgan hozirgi sharoitda ulg'ayayotgan bolaning o'ziga xos dunyo qarashi va qiziqishlari mavjud. Hozirgi kunda bunday bolalarga har kuni 10-15 ta yangi so'zni doskaga yozib, o'zbekchasi bilan yodlatilib o'qitiladigan til darslri umuman qiziqish uyg'otmaydi.

Fan o'qituvchisi ilk darslaridanoq o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar bilan do'stona, samimiy munosabatni yo'lga qo'yib olishi zarur. Zero, endilikda "Ustoz zolim bo'lsa o'quvchi olim bo'ladi" qabilidagi qarashlar natija bermaydi. Negaki, tanlash imkoniyatlarimiz kundan kunga ortib bormoqda. Xususiyl maktab, xususiyl ko'chalarning ko'payishi bizga ana shunday imkoniyatni taqdim etadi. Shuningdek, har tuman, shaharlarda til to'garaklarini jamlagan o'quv markazlarining soni ham o'tgan yillarga nisbatan ancha ko'paydi. Bu shuni ko'rsatadiki ota - onalarda bitta ustoz, bog'cha yoki maktabdan qoniqarli natija ololmasalar boshqasiga ko'chira

olish imkoni mavjud. Bunday sharoitlar esa bugungi kun o'qituvchisidan tinmay izlanishni, o'z ustida ishlashni, shuningdek, yangicha metodlarni o'z faoliyatiga tadbiiq etishni talab qiladi.

Ko'p yillik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, 5- 10 yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'qitish alohida ya'ni individual o'qitgandan guruh tarzida o'qitilishi yaxshi samara beradi. Shu bilan birga dars jarayonlari qiziqarli o'yinlar bellashuvlar raqobatli muhitda tashkillashtirilsa o'rganuvchini o'ziga jalb qila oladi.

Bunda o'qituvchidan alohida tayyorgarlik, mehnat va pozitivlik talab etiladi. Chunki ortiqcha yuklamalar va bosim o'tkazish bolalarda til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqning so'nishiga olib kelishi mumkinligi hech kimga sir emas.

Tajribali hamda yuqori malakali pedagoglar faoliyatini kuzatar ekanman, shunga amin bo'ldimki, bu yoshdagi bolalar hali so'z va gaplarning asl ma'nosini tushunmasdan uni mexanik tarzda yodlasharkan. Bu jarayonda qo'shiq, she'r, qiziqarli hikoyalar, harakatli o'yinlar yoki bolalarning o'zlari yoqtirgan multfilm qahramonlari misolida o'rgatish mumkin .

"Name change " nomli metoddan bog'cha yoki maktabda foydalanish mumkin. Name change - ya'ni ism o'zgartirishda o'qituvchi har belgilangan muddat o'tgandan keyin o'ziga yangi ism tanlaydi ya'ni inglizcha ism . O'quvchilarga o'zini shu ism orqali murojat qilishlarini so'raydi. Afzallik tomoni shundaki o'quvchiga ustozini har safar yangi ismini kutish qiziqish uyg'otadi. Yana inglizcha ismlar masalan Miss.

Jane, Miss Anna va shunga o'xshash boshqa ismlar bilan murojaat qilish orqali ingliz muhitini yaratish imkonini beradi.

Shuningdek yana bitta metod "Rasmlil organayzerlar" orqali o'rganilayotgan yangi so'zlar rasmlarda tasvirlanadi. Bunday organayzerlarni o'qituvchi o'z qo'li bilan ham chizishi mumkin. Muhimi o'quvchida tasavvur uyg'otish. Bunda hayvonlar , meva- sabzavotlar yoki boshqa predmetlar hattoki harakatlarni ham tasvirlash mumkin.

Harakatli o'yinlar bolajonlarning eng sevimli metodlaridan biri bo'lib bunday o'yinlar tashkil etish o'qituvchining o'z mahoratiga bog'liq. Misol qilib ranglarni o'rgatish jarayonida har xil rangli qog'ozlar, rangli geometrik shakllarni chizib o'tkazish mumkin. O'yin jarayonida o'qituvchi ranglarning inglizcha nomini aytadi ,bolalar shu rangdagi shaklni ichiga o'tib olishi kerak. Masalan, o'qituvchi " blue" desa o'quvchi moviy shakl yoki qog'oz ustiga o'tadi. "White" buyrug'i berilganda oq shakl yoki soiracha va hokazo.Shuningdek, so'nggi yillarda televideniye orqali ingliz tilini o'rgatishga asoslangan multfilmlar hamda animatsion filmlar yaratilmoqda. O'quvchilarga uyga vazifa berishda ana shu uslublardan foydalanilsa ham yaxshi natija beradi. Bu yoshdagi bolalarda tez unutishga moyillik borligi bois darslar uzluksiz va izchil tartibli bo'lishi nihoyatda muhim. Darslar orasida o'tilgan mavzularni takrorlash ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada ham turli o'yinlar qiziqarli mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Izlanishlarimiz davomida bu yo'nalishda ham ancha metodlarni kuzatdik. Shulardan biri "HOT potato" ya'ni "issiq kartoshka". Bu uslubning afzalliligi shundaki musiqa yangrashi jarayonida o'quvchilar ma'lum tanlangan predmetni bir birlariga ulashadilar, to'satdan musiqa to'xtatiladi va predmet qaysi o'quvchi qo'lida qolsa ma'lum belgilangan mavzu doirasida o'rganilgan so'zni aytishi kerak bo'ladi. O'yinning asosiy qoidasi so'z takrorlanmasligidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish bugungi kunning dolzarb va ommalashib borayotgan masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Darslar qiziqarli o'tilishi qo'shiq she'rlar ,harakatli o'yinlar bilan olib borilishi kutilgan samaraga erishishning tajribalarda kuzatilgan uslubidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J. Jalolov " Ingliz tilini o'qitish metodlari" O'qituvchi nashriyoti Toshkent
2. Chet tilini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari (PQ 1875 sonli qarori) Xalq so'zi gazetasi 2012 yil 12-dekabr.